



O'ZBEK VA YAPON TILIDAGI TABIAT HODISALARIGA TEGISHLI TAQLID SO'ZLARNING GAPDAGI O'RNI

Quvondiqova Nozima Xolboy qizi

Toshkent Davlat Jahon Tillari Universiteti magistri

Annotatsiya: Taqlid so'zlar shaxslarning, jonli-jonsiz narsalarning, nutqi, harakat holatlari asosida paydo bo'ladigan so'zlardir. Tilimizda nutqiy ta'sirchanlik, obrazlilikni oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Semantik, pragmatik ma'no xususiyatlariga ko'ra nutqda faol qo'llaniladi. Maqolada o'zbek va yapon tilidagi tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlarning gapdagi o'rni haqida keng ko'lamda tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: Taqlid so'zlar, tabiat hodisalari, semantik, pragmatik, tovush, so'z birikmasi.

THE PLACE OF SIMILAR WORDS RELATING TO NATURAL PHENOMENA IN THE UZBEKI AND JAPANESE LANGUAGES

Kuvondikova Nozima Kholboyevna

Master student of Tashkent State University of World Languages

Abstract: Imitative words are words that appear based on the speech and actions of persons, animate and inanimate objects. In our language, it creates a wide range of possibilities for increasing expressiveness and imagery. It is actively used in speech due to its semantic and pragmatic meaning. In the article, a broad understanding of the place of imitation words related to natural phenomena in the Uzbek and Japanese languages is given.

Key words: Imitative words, natural phenomena, semantic, pragmatic, sound, word combination.

МЕСТО СХОДНЫХ СЛОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ПРИРОДНЫМ ЯВЛЕНИЯМ, В УЗБЕКСКОМ И ЯПОНСКОМ ЯЗЫКАХ

Кувондикова Нозима Холбоевна

магистрант Ташкентского государственного университета мировых языков

Аннотация: Подражательные слова – это слова, возникающие на основе речи и действий лиц, одушевленных и неодушевленных предметов. В нашем языке это создает широкие возможности для повышения выразительности и образности. Он активно используется в речи благодаря своему смысловому и прагматическому значению. В статье дается широкое понимание места слов-подражаний, связанных с природными явлениями, в узбекском и японском языках.



Ключевые слова: *Подражательные слова, явления природы, семантика, прагматика, звук, словосочетание.*

Tovushlar inson va tabiat tovushlariga bo'linadi. Inson tovushlari nutq a'zolarining harakati asosida paydo bo'lsa, tabiat tovushlari, odatda, narsalar birbiriga tegishi, urilishi, qisilishi, siqilishi, buralishi kabilar asosida paydo bo'ladi. Shuningdek, hayvon-jonivorlarning tovushi: itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, qushlarning sayrashi, otning kishnashi, qo'ylarning ma'rashi, eshaklarning hangrashi kabilarga taqlid qilish asosida ham tilimizda bir qancha so'zlar paydo bo'ladi. Bunday so'zlar tilshunoslikda taqlid so'zlar deb yuritiladi. Taqlid so'zlar, shuningdek, jonli-jonsiz narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlardir. Shunga ko'ra ikki turga bo'lib o'rganiladi:

1. Tovushga taqlid so'zlar.

2. Holatga taqlid so'zlar.

1. Tovushga taqlid (擬音語 giongo) so'zlar.

Bularga yomg'irning yog'ishi, momaqaldiroq gumburlashi va suvning shildir-shildir ovozi.

雨がしとしと降っています。

Amega shitoshito futte imasu.

Yomg'ir shirt – shitr yog'yapti.

雨がたたた降っています。

Amega tatata futte imasu.

Yomg'ir shiiiiir- shiiiiir yog'yapti.

水がぽたっと流れています。

Mizuga potat to nagarete imasu.

Suv sh-sh-sh-shlab oqayapti.

水がぴちぴちと流れています。

Mizuga pichyapichya to nagarete iru.

Suv tik – tik oqayapti.

雷がゴロゴロ鳴っています。

Kaminariga gorogoro natteimasu.

Momaqaldiroq gumburlamoqda.

水がたらたらと流れています。

Mizuga taratara to nagarete imasu.

Suv tik – tik - tik oqayapti.

風がさやさや吹いています。

Kazega sayasaya fuite imasu.

Mayin shamol esyotgan shamolning ovozi.

雨がぽつぽつ降ってきます。

Amega potsupotsu futte imasu.



Yomg'ir tik-tik yog'a boshladi.

雨がぱらぱら降っています。

Amega parapara futte imasu.

Yomg'ir tik-tik yog'yapti.

雨がざーざー降っています。

Amega za -za- futte imasu.

Yomg'ir kuchli yog'yapti.

雨がしょぼしょぼと降っています。

Amega shyoboshyobo to futte imasu.

Yomg'ir shirt - shitr yog'yapti.

雨がどしゃぶり降っています。

2.Holatga taqlid (擬態語gitaigo)so'zlar. Olovning lovilab yonishi, oy , yulduz, quyoshni nurining porlashi, shamolning qay holatda esishi, yomg'ir, qor , do'lning katta-katta bo'lib yog'ishi kiradi.

火が風に煽られ、一瞬、ぼっと燃え上がった。

Hi ga kaze ni aorare, issun, botto moeagatta.

Shamol olovni bir zumda lovullab alangaga aylantirib yubordi.

月がこうこうと照っているから、あすは晴れるそうです。

Tsukiwa koukou to tetteirukara, asuwa harerusoudesu.

Oy yorqin porlayotganligi uchun ertangi kun bahordek bo'lsa kerak.

太陽がさんさんしています。

Taiyouga sansan shite imasu.

Quyosh porlayapti.

星がきらきら光っている。

Hoshiga kira kira hikatte iru

Yulduzlar porlab turibdi.

太陽がぎらぎらと照り付けて汗が止まらない。

Taiyouga gira gira to teri tsukete asega tomaranai

Quyosh nurlari yondirganidan ter to'xtamayapti.

風がビュービュー吹いています。

Kazega byu - byu- fuite imasu.

Shamol g'uv - g'uv esyapti.

風がピューピュー吹いています。

Kazega pyu-pyu- fuite imasu.

Shamol shuu-shuu esyapti.

風がさーさー吹いています。

Kazega sa-sa- fuite imasu.

Mayin shamol esyapti.

空がどんよりしています。

Soraga donyori shite imasu.



Osmon bulutli.

雲がもくもくしています。

Soraga mokumoku shite imasu.

Osmon bulutli.

雪がこんこん降っています。

Yukiga konkon futte imasu.

Mayda-mayda qor yog'yapti.

雨がどしゃぶり降っています。

Amega doshyaburi futte imasu.

Kuchli yomg'ir yog'ayapti.

O'zbek tilida kuchli yomg'irga nisbatan "chak-chak" yomg'ir yog'di, iborasini ishlaymiz. Yaponiyaliklar esa nisbatan shiddatliroq yomg'ir yog'ish holatini “ざーざー” (za-za) deb ataydilar.

Yana bir e'tiborli jihati shuki, ba'zi yapon onomatopik so'zlarning o'zbek tilidagi ekvivalenti umuman mavjud emas. Masalan, yaponlar さくさく (saku saku) taqlid so'zini "yumshoq qumni bosish, mayin tuproq ustida harakatlanish" talqinida tushunsalar, bizning lug'atimizda esa unday tushunchani anglatuvchi taqlid so'z yo'q.

Tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlar gap bo'lagi sifatida ham mustaqil so'z - gap sifatida ham qo'llanadi. Lekin lug'aviy ma'no ifoda eta olmasligi bilan yordamchi so'zlarga o'xshashdir. Shuning uchun ham oraliq so'z turkumi tarkibiga kiradi. Shuningdek, tabiat hodisalariga tegishli tovushga taqlid so'z va so'z birikmalari ba'zan otlashib, ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi va ega, qaratqich aniqlovchi, hamda hol va sifatlovchi aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Muyasar uyda yolg'iz o'tirib, uy tomini chertayotgan yomg'irning taqir -taqurini tinglardi.

Bu gapimizda, tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'z taqir-taqur.

Taqir - tuqur+i egalik qo'shimchasi ni+ tushum kelishigi.

Gapdagi tabiat hodisalariga tegishli tuvushga taqlid so'z

(taqir-tuqurini) to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelgan.

Shamol g'ir- g'ir esmoqda . (hol)

Qo'shni qishloqdan momaqaldiroqning gumbur - gumbur ovozi eshitilib turar edi. (sifalovchi aniqlovchi)

Yalt-yult etib chaqmoq chaqdi.(hol)

Qor gup - gup yog'di.(hol)

Shuningdek, tabiat hodisalariga tegishli tasviriy so'zlarning ba'zi fonetik xususiyatlari, tasviriy so'zlarning so'z yasash tizimidagi o'rni, ulardagi otlashish (shildir+i kabi) hodisasi va ularning muhim sintaktik vazifalari sanaladi.

l.Hol vazifasida keladi va o'zidan keyin と "to" qo'shimchasi bilan keladi.

水がぽたっと流れています。

Mizuga potat to nagarete imasu.

Suv sh-sh-sh-shlab oqayapti.



稲妻がピカッと光りました。

Inazumaga pikatto hikarimashita.

Chaqmoq chaqnadi.

風がすーっと吹いています。

Kazega su-tto fuite imasu.

Mayin shabada esyapti.

雷がごろごろと鳴り始めた。

Ameqa gorogoro to nari hajimeta.

Momaqaldiraq gumburlay boshladi.

朝の太陽が、ぼっと雪原を照らしていた。

Asa no taiyouga ottori to setsugen o terashite ita.

Ertalabki quyosh qorli maydonni ohista yoritdi.

波が岩肌に、ざざっと打ち寄せた。

Nami ga iwahada ni, zazatto uchiyoseta.

To'lqinlar tosh to'lqinlanib urildi.

水がぽたぽたと流れています。

Mizuga potapota to nagarete imasu.

Suv tez oqyapti.

水がぴちゃぴちゃと流れています。

Mizuga pichyapichya to nagarete iru.

Suv tik – tik oqayapti.

水がたらたらと流れています。

Mizuga taratara to nagarete imasu.

Suv tik – tik - tik oqayapti.

ぼつぼつと降り始めた雨は、すぐにぎーっと勢いを増した。

Botsubotsu to ori hajimeta ame wa, sugu ni zaa tto ikioi o mashita.

Maydalab yog'ayotgan yomg'ir birdaniga shatr-shatrlab yog'a boshladi.

火が風に煽られ、一瞬、ぼっと燃え上がった。

Hi ga kaze ni aorare, issyun, botto moeagatta.

Shamol olovni bir zumda lovullab alangaga aylantirib yubordi.

月がこうこうと照っているから、あすは晴れるそうです。

Tsukiwa koukou to tetteirukara, asuwa harerusoudesu.

Oy yorqin porlayotganligi uchun ertangi kun bahordek bo'lsa kerak.

2. Fe'l vazifasida keladi - さんさんしています、もくもくします mokumoku

shimasu, ぎらぎらする giragira suru,

太陽がさんさんしています。

Taiyouga sansan shite imasu.

Quyosh porlayapti.

煙がもくもくしています。



Kemuriga moku moku shite imasu.

To'p-to'p tutun.

星がぎらぎらする。

Hoshi ga giragira suru.

Yulduz miltilyapti.

太陽がおっとりしています。

Taiyuga ottori shite imasu.

Bahor quyoshi.

太陽がかっかしています。

Taiyuga kakka shite imasu.

Quyosh nuri qizdiriyapti.

太陽がかんかんしています。

Taiyuga kankan shite imasu.

Yozning jazirama quyoshi.

O'zbek tilining tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlar faqatgina tovush va ovoznini emas, balki obraz va holatini umumiy tarzda ifodalovchi so'zlar taqlid so'zlar o'rganilgan. Tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlar jonsiz narsalarning ya'ni shamolning esishi, yomg'irning yog'ishi, qorning yog'ishi, oy, quyosh, yulduzlarning nur sochishi, harakat-holatlar asosida paydo bo'ladigan so'zlardir. Tilimizda tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlar nutqiy ta'sirchanlik, obrazlilikni oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Semantik, pragmatik ma'no xususiyatlariga ko'ra nutqda faol qo'llaniladi. Insoniyat taqlid so'zlarni o'rta asrlarda alohida guruh sifatida anglagan bo'lsa ham, tilshunoslikka so'z turkumi sifatida kirib kelishi va tadqiq qilinishi biroz kechroq boshlangan. Taqlid so'zlar - ma'no va shakliy xususiyatlariga ko'ra, alohida guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va boshqa jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat holat obrazini taqlidan ifodalovchi so'zlar. Bugungi kunda barcha sohalar qatorida o'zbek tilshunosligida qator o'zgarish va yangilanishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar, albatta, jamiyat taraqqiyotining rivojlanishidan darak beradi.

O'quvchilar lug'atini tovushga taqlidni bildiradigan so'zlar bilan boyitish maqsadida berilgan so'zlarni (masalan, inga-inga, gumbur-gumbur, pix-pix, vizviz, vish-vish, vaq-vaq, miyov-miyov, bildir-bildir, hov-hovva h.k.), inson tovushiga taqlid so'zlar, hayvon, qush, hasharotlar chiqaradigan tovushga taqlid so'zlar, tabiat hodisalarini chiqargan tovushlarga taqlid so'zlarga ajratish va bu so'zlar guruhini mustaqil davom ettirish, tovushga taqlid so'zlarni to'liq takrorlangan (masalan, gumbur-gumbur, guldur-guldur) va tovushlar takrori (masalan, taq-tuq, shaq-shuq) kabi guruhlarga ajratish, ular yordamida gaplar qurish, matn yaratish, taqlid so'zlarda ma'noning torayishi (masalan, shaqshaqa, tartarak, sharshara), ularning qo'llanilishi va imlosi ustida ishlashga oid amaliy ishlar bajariladi.

Yaponlar tabiiy nutqni shakllantirish maqsadida taqlid so'zlardan ko'proq foydalanishga harakat qilishadi. O'zbek tilida bu kabi holatda alohida fe'l, sifat, ravish so'zlar bor bo'lgani holda yapon tilida bunday imkoniyat cheklanganligi sababli taqlid so'zlar tildagi muhim aspekt sifatida uzluksiz rivojlanishda davom etadi. Mamalakatlararo



turli madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar natijasida tilga yangi so'zlar ham kirib keladi va bu tilning boyishida juda muhim jarayon sanaladi.

Ko'rinib turibdiki, bu jihatdan o'zbek va yapon tillari orasida farq katta. Ya'ni ular umuman boshqa boshqa so'z turkumlariga mansub deb qaraladi. O'zbek va yapon tillarida tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlar kirish so'z turkumiga kiradi, kirish so'zlar esa alohida olingan so'zlar guruhiga mansubdir.

O'zbek tilida tabiat hodisalariga tegishli taqlid so'zlar asosan 3-shax qo'shimchasi oladi. Gapning boshida kelib boshqa bo'laklardan vergul bilan ajratiladi. Yapon tilida esa kirish so'z deb ataladigan tushuncha umumam yo'q. Ravish, fe'l so'z turkumi sifatida qaraladi.

Yaponlar tabiiy nutqni shakllantirish maqsadida taqlid so'zlardan ko'proq foydalanishga harakat qilishadi. O'zbek tilida bu kabi holatda alohida fe'l, sifat, ravish so'zlar bor bo'lgani holda yapon tilida bunday imkoniyat cheklanganligi sababli taqlid so'zlar tildagi muhim aspekt sifatida uzluksiz rivojlanishda davom etadi. Mamalakatlararo turli madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar natijasida tilga yangi so'zlar ham kirib keladi va bu tilning boyishida juda muhim jarayon sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Quدراتxo'jayev Sherzod, Abdug'affor Qirg'izboyev, "O'zbekiston-Yaponiya: o'zbek diplomatiyasining yangi bosqichi", Toshkent, "O'AJBNT" Markazi, 2002.
- 2) Abdurahmonov G. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", Toshkent, 2008
- 3) Yusuke KUSABA, Ryuichi DOIZAKI and Maki SAKOMOTO A study on Effectiveness of Onomatopoeia in Expressing Users' Operational Feelings about HMIs The University of Electro- Communications, 1-5-1 Chofugaoka, Chofushi, Tokyo 182-8585, Japan
- 4) Nataliia Vitalievna Kutafeva, Japanese Onomatopoeic Expressions with Quantitative Meaning, Novosibirsk State University, Russian Federation(2014)
- 5) Naomi Sharlin Sounds Like..... Understanding Japanese Sound Symbolism Bryn Mawr College December 2009